



JAMILA ERGASHEVA ASARLARIDA PSIXOLOGIK TASVIR UYG'UNLIGI

Umida Choriyeva
TerDU o'qituvchisi

Jamila Ergasheva – bugungi odam va uning o'ziga xos ruhiy dunyosini qiziqarli va o'ta qaltis voqealar tasviri asnosida ko'rsatishga qaratilgan qissalari bilan tanilgan yozuvchi. Nosir ijodining mahsuli hisoblangan, "Zulfizar", "Ajdarko'l", "Intiqom", "Tanazzul", "Yopiq derazalar" singari o'tkir syujetli, o'quvchi diqqatini o'ziga mixlab oladigan qissalarida ezgulik va yovuzlikning inson minazi va taqdiridagi izlari keskin ziddiyatlar asnosida aks ettiriladi. Agar klassik qissalarning qahramonlari o'z yovlari bilan omonsiz jang qilgan bo'lsalar, adibaning asarlarida qahramonlar yo o'z nafsga qarshi kurashi yoki nafsning qurbaniga aylanishi kechmishi tasvirlanadi. Adiba ijodidagi har bir qissaning sarlavhasiyoq o'quvchini mushohadaga chorlaydi.

Adibaning "Zulfizar" qissasi yoki "O'lim" hikoyasida diniy va dunyoviy hayot murosasizligi orqali inson ongida kechayotgan urush davri jarohatlari o'z aksini topgan. Bu asarlarda "Havo nihoyatda dim edi. Osmon yuzini kir choyshabdek qoramtil bulut qoplagan, quyosh xira fonus kabi zo'rg'a ko'zga tashlanadi. Kuz. So'nggi yaproqlarini tukaëtgan daraxt shoxlari allanechuk diydirab turardi" ²⁷. "Peshonasi uzra to'zg'ib yotgan kumush tus xiyol qo'ng'iroq sochlarini ko'rib hayratda tushdim" ²⁸. Shu yo'sinda syujet shiddati peyzaj tasviri orqali amalga oshiriladi. Muallif o'ziga xos qoliplashdan foydalangan holda tabiat tasviri zimmasiga ham o'z nuqtai nazarini ifodalash, ham o'quvchi ko'nglida umidbaxshlik tuyg'usini uyg'otish vazifasini yuklaydi. Hamda, o'zbek mentalitetining cheksiz poetik imkoniyatlaridan foydalanib, o'quvchi ko'nglida yorug' tuyg'ular paydo qiladi. Unda qahramon qalb kechinmalari, o'rtanishlarini hassoslik bilan chizadi. Uning nasrida o'quvchi yuragini larzaga soladidan hayotiy, jonli voqealar qalamga olinadi. Adiba hayotiy voqealar bilan tabiat tasvirini uyg'unlashtirib, asar tuguni orqali asar syujeti liniyalarini shakllantiradi. Qahramon ruhiyati va voqealar rivoji ikki liniyali syujet chizig'ida qad rostlaydi. Nosir asar boshida yechimni ham taqdim qiladi. Va, voqealar shiddati shu o'zanga qarab o'zgaradi. "Zulfizarning yuragi siqilib ketdi. Mashinadan tushgach, chuqur-chukur nafas oldi, ammo yuragini siqayotgan bexalovatlikdan xalos bo'la olmadi, o'pkasining kaysidir burchaklariga toza havo

²⁷ Эргашева Ж. Зулфизар: (қисса ва хикоялар). – Т.; Мухаррир нашриёти, 2011. б – Б. 3. (252.)

²⁸ Эргашева Ж. Зулфизар: (қисса ва хикоялар). – Т.; Мухаррир нашриёти, 2011. б – Б. 219.



yetib bormayotgandek edi. U tezroq uygaga yetib borishni istadi. Kelayotganini qiziga aytmay yaxshi qilgan ekan. Hozir uygaga kiradiyu, yotadi. Charchog'i yozilgach, ovqat qiladi, Feruz mактабдан kaytgach, Farangizni bog'chadan olib keladi. Qiziga kechga yaqin qo'ng'iroq qiladi: "Men keldim, nevaralarim bilan o'tiribmiz. Kalit odatdagidan qiyinroq buraldi. Temir eshik "shirq" etib ochildi²⁹. Asar boshida berilgan ushbu epizod, asar so'ngiga qadar shu alfozda boradi. Hozirgi voqealar tasviri kechayotgan jarayonda Zulfizar buvi, u nabiralari og'ushida baxtli hayot kechirayotgan edi go'yo. Bu voqealar qahramonning ruhiy iztiroblarini yuz chandon oshiradi. "Iye, bular uydami, deyman?", - hayron bo'lib o'yladi u, bo'sag'adagi besarishta poyafzallarga ko'z tashlarkan. Qizi ham, kuyovi ham bu paytda ishda bo'lishlari kerak edi: "Tinchlikmikin?!".

Qizi kasal bo'lib qolganda ham hech ishidan qolmas edi, faqat bolalarining tobi ochgandagina noiloj uyda bo'lardi.

Yotoqxonadan g'udurlagan ovoz eshitildi. U shoshib eshikni Ochdi:

- Sora!

Ag'dar-to'ntar bo'lib yotgan to'shakda ko'zlari ola-kula bo'lgancha shoshib-surunib kiyinishga harakat qilayotgan yarim yalang'och kuyovi bilan begona bir ayolning sochlari tuzib yotganini ko'rdiyu, turgan joyida toshdek qotib qoldi. Yetmish ikki tomirini kuydirgan alanga tomog'iga tikilganday buldi, og'zi kurib, tili tanglayiga yopishdi. Sekingina ortiga burilib, bemador qo'llari bilan devorga suyana-suyana, oshxonaga yo'l oldi: Suv! Bir qultumgina suv..."³⁰

Qissada odamning yovuz amaligina emas, balki nafsi yetovidagi nojoiz niyati ham jazosiz qolmasligi juda ta'sirli aks ettirilgan. Ushbu bo'yoqdor tasvir orqali muallif ham qahramonga o'z munosabatini sezdiradi, ham uning ruhiyatidagi to'lg'amlarni o'quvchiga yuqtirishga erishadi. "Chelak turadigan kursi yoniga zo'rg'a yetib bordi. Stoldan piyolani olib, suvgaga engashgan mahal o'ng yelkasida simillagan og'riq turdi. Og'riq lahma sayin zo'rayib borardi. U bir amallab bir ho'plam suv ichdi-da, sekin ortida turgan o'rindiqqa o'tirdi. Og'riq yoyilib, ko'krak tomonga o'tdi va yurakning qaysidir burchagiga joylashib oldi. Ko'p o'tmay yurakda dahshatli og'riq boshlandi. Bu shunday kuchli og'riq ediki, nafas xam ololmay koldi va gursillab polga yiqildi. Nashatir spirti va kamfora hidi anqib yotgan xonada o'ziga keldi. Toshdek og'ir qovoqlarini zo'rg'a ko'tarib, boshi ustida unga karab, allanimalar haqida bahslashayotgan oq xalatli odamlarni ko'rdi. Ko'ksidagi og'riq nafas olishiga ham yo'l bermas edi"³¹. Asarda muallif tabiat tasvirini shunchaki voqeа makoni va zamonini ko'rsatish uchun keltirmaydi, unga hamisha salmoqli badiiy yuk ortadi.

²⁹ Эргашева Ж. Зулфизар: (қисса ва хикоялар). – Т.; Мухаррир нашриёти, 2011. б – Б. 3.

³⁰ Эргашева Ж. Зулфизар: (қисса ва хикоялар). – Т.; Мухаррир нашриёти, 2011. б – Б. 4.

³¹ Эргашева Ж. Зулфизар: (қисса ва хикоялар). – Т.; Мухаррир нашриёти, 2011б – Б. 4.



Tabiatning bunday tasviri qahramonlar hayotidagi og‘ir sinovlar osonlik bilan bartaraf bo‘lmasligiga ishoradir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эргашева Ж. Зулфизар: (қисса ва ҳикоялар). – Т.; Мұхаррир нашриёти, 2011. 6 – Б. 3.
2. И. Султон, Адабиёт назарияси,- Тошкент, “Ўқитувчи”, 1980 йил, 131-132 – бетлар
3. Тўхта Бобоев, Адабиётшунослик асослари, - Тошкент, “Ўзбекистон”, 2002 йил
4. Shaymardanova, A. R. (2021). О ‘ZBEK TILINING INTRALINGVAL LAKUNALARI.“. FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari, 234.
5. Shaymardanova, A. (2020). THE ROLE AND POSITION OF LACUNAS OF CULTURAL LOCATION IN THE PROCESS OF COMMUNICATION (CAN THE WORD “YANGA” BE THOUGHT TO BE A LACUNA IN UZBEK LANGUAGE?). *Theoretical & Applied Science*, (12), 322-325.
6. Shaymardanova, A. (2021). Компьютерный Перевод Культурных Характеристик Проблема Изготовления. *Computer Linguistics: Problems, Solutions, Prospects*, 1(1).
7. Makhamadievna, A. M., & Tulkunovna, R. N. (2021). Teaching foreign language by using effective methods. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(12), 47-50.
8. Makhamadievna, A. M. (2022). Effective Teaching English Language to Non-Linguistic Students by Using Project Based-Learning. *The Peerian Journal*, 6, 48-51.